

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UMARXODJAYEVA ARAFATXON MUZAFFAR QIZI

TO‘QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATIDA ISHLAB
CHIQRISH ZANJIRINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
economic sciences**

Umarxodjayeva Arafatxon Muzaffar qizi

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarishni
takomillashtirish 3

Умаркходжаева Арафахон Музаффар кизи

Совершенствование управления цепочками поставок в текстильной и
швейной промышленности..... 29

Umarkhodjaeva Arafatkxon Muzaffar kizi

Improving Supply Chain Management in the Textile and Apparel Industry..... 55

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.1.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UMARXODJAYEVA ARAFATXON MUZAFFAR QIZI

**TO‘QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATIDA ISHLAB
CHIQARISH ZANJIRINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/Iqt892 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Yusupov Ulug‘bek Shukurullayevich iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Hakimov Ziyodulla Ahmadovich Iqtisodiyot fan doktori DcS, dotsent Saidov Mash‘al Samadovich Iqtisodiyot fan doktori DSc, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent to‘qimachilik yengil sanoat instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “____” “____” kuni soat “____” dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “____” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.Q. Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

O. Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, i.f.d., professor

Sh. Allayarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida to'qimachilik, tikuv-trikotaj sanoati nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. "2024-yilda global tikuv-trikotaj mahsulotlari bozori hajmi 1,84 trillion AQSH dollarini tashkil etib, jahon yalpi ichki mahsulotining 1,65 % ini tashkil etgan. global miqyosda to'qimachilik yetkazib berish tarmog'i 2023-yildagi qiymati 433 mlrd AQSH dollari ni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2032-yilgacha 700 mlrd AQSH dollarigacha o'sishi kutilmoqda va yiliga o'rtacha o'sish 5,5 % kuzatilishi prognoz qilinmoqda"¹. Bunday o'sish ishlab chiqarish, logistika, inventarizatsiya, yetkazib beruvchilar bilan ishlash kabi jarayonlarda yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Mazkur jihatlar resurslarni tejash, ishlab chiqarishning izchilligini ta'minlash, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va bozor talablariga tez javob berish – to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida yetkazib berish zanjirini boshqarishni takomillashtirish muhim strategik vazifa sifatida qaralmoqda.

Jahon olimlari tomonidan to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarishni takomillashtirish borasidagi tadqiqotlarga yuqori ahamiyat qaratilmoqda. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida tarmoq xususiyatlarini va rivojlanish tamoyillarini hisobga olgan holda mahsulot yetkazib berish va ta'minot tizimlarini takomillashtirish va ularda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishda "aqlli fabrika" tamoyillarini qo'llash asosida yuqori resurs tejamkorligiga erishish, ishlab chiqarish qiymat zanjirining barcha bo'g'inlarini innovatsion menejment tamoyillari asosida tashkil etish va uning boshqaruvini amalga oshirish, to'qimachilik va tikuv trikotaj mahsulotlari global qiymat zanjirida samarali mahalliy korxonalarning samarali ishtirokini ta'minlash bu boradagi ustuvor tadqiqot yo'nalishlaridir.

O'zbekistonda to'qimachilik sanoatini barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va mazkur sanoatni rivojlantirish orqali qo'shilgan qiymat yaratish mexanizmlarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining investitsion raqobatbardoshligini oshirish, sohaning eksport salohiyatini kengaytirish, mahalliy to'qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishini ta'minlash maqsadda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida "mahsulotlar eksportini 2025-yilda 4,0 milliard AQSH dollariga, 2026-yilda 5,0 milliard AQSH dollariga va 2027-yilda 7,0 milliard AQSH dollariga yetkazish", "ip-kalavani chuqur qayta ishlashni yanada rivojlantirish maqsadida 5,0 milliard AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilish"² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu maqsadga erishish uchun to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarish ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish, ishlab chiqarish zanjirida qo'shilgan

¹ <https://www.researchandmarkets.com/reports/5797455/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/7330228>

qiymat yaratishda innovatsion menejment usullaridan foydalanish, paxta-to‘qimachilik klasterlarini ishlab chiqarish zanjirini va global qiymat zanjirini samarali boshqarish yo‘llarini aniqlash, boshqaruvda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘llarini aniqlash talab etilmoqda. Shuningdek, 2026-yil 4-fevraldagi PF-17-son “Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” farmon qabul qilingan. Mazkur Prezident Farmoni bilan yangi instrumentlar, 2026-yil 1-iyuldan boshlab respublika va mintaqa bozorini tahlil qilinib, milliy iqtisodiyotga qo‘shiladigan qiymat zanjirlarini oshirishga xizmat qiluvchi o‘zlashtirish tavsiya etiladigan raqobatbardosh mahsulotlar ro‘yxatini sohalar kesimida bosqichma-bosqich shakllantirib, e‘lon qilib borishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 1-maydagi PF-71-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 16-noyabrdagi PF-14-son “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2019-yil 12-fevraldagi PQ-4186-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 30-sentabrdagi 556-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 10-dekabrda 733-son “Paxta to‘qimachilik klasterlari faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda soha faoliyatiga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatning ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalarini ishlab chiqarish zanjirini boshqarish orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda eksport salohiyatini oshirishning ilmiy-nazariy jihatlarini ko‘plab xorijlik olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan,

Lam J. K.C., Postle R., Pal K., Shen B., Kazancoglu Y., Muthu S. S., McMaster M., Akter M.M., Shah S.M., Lütjen M., Freitag M. va boshqalarning ilmiy izlanishlarida tadqiq etilgan³.

To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarishda innovatsion menejment tamoyillaridan foydalanish borasida MDH davlatlari olimlaridan V.V.Akimova, M.A.Kupsova, D.L.Goryayev, O.N.Zotikova, S.G.Dembiskiy, Kuznetsov G. A., Krupnov Yu. A., Gviliya N. A., Siszya L., Kosheleva T. N., Ksenofontova T. Yu., Gulyayeva O. A., Savinov Yu. A., Doljenko I. B., Doljenko I. B. va boshqalar tadqiqotlar qilganlar⁴.

O'zbekistonning iqtisodchi olimlaridan Maxmudov N.M., Xomidov S.O., Avazov N.R., Yodgorova Sh., Abdullayeva S.K., Davlyatova G.M., Xayitov Sh.P., Xakimov Z.A., Bekmurodov A.Sh., Yang Son Be., Boltabaev M.R. va boshqalar to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarishga bag'ishlangan keng ko'lamli tadqiqotlar olib borishgan⁵.

³ Lam J. K. C., Postle R. Textile and apparel supply chain management in Hong Kong //International Journal of clothing science and technology. – 2006. – T. 18. – №. 4. – C. 265-277.; Pal K. et al. Internet of things and blockchain technology in apparel manufacturing supply chain data management //Procedia Computer Science. – 2020. – T. 170. – C. 450-457.; Shen B. et al. Green technology adoption in textiles and apparel supply chains with environmental taxes //International Journal of Production Research. – 2021. – T. 59. – №. 14. – C. 4157-4174.; Kazancoglu Y. et al. Towards industry 5.0 challenges for the textile and apparel supply chain for the smart, sustainable, and collaborative industry in emerging economies //Information Systems Frontiers. – 2024. – T. 26. – №. 5. – C. 1857-1872.; Muthu S. S. Assessing the environmental impact of textiles and the clothing supply chain. – Woodhead publishing, 2020.; McMaster M. et al. Risk management: Rethinking fashion supply chain management for multinational corporations in light of the COVID-19 outbreak //Journal of Risk and Financial Management. – 2020. – T. 13. – №. 8. – C. 173.; Akter M. M. K. et al. Textile-apparel manufacturing and material waste management in the circular economy: A conceptual model to achieve sustainable development goal (SDG) 12 for Bangladesh //Cleaner Environmental Systems. – 2022. – T. 4. – C. 100070.; Shah S. M., Lütjen M., Freitag M. Text mining for supply chain risk management in the apparel industry //Applied Sciences. – 2021. – T. 11. – №. 5. – C. 2323.

⁴ Акимова В. В., Купцова М. А. Глобальные производственные сети в швейной промышленности Азии //Вестник Московского университета. Серия 5. География. – 2023. – №. 3. – С. 68-81.; Лиджи-Горяев Д. В. Проблемы качества переработки шерстяного сырья в текстильной промышленности России //Перспективы развития отрасли и предприятий АПК: отечественный и международный опыт. – 2020. – С. 450-454.; Зотикова О. Н., Дембицкий С. Г. Тенденции выпуска текстильных изделий и одежды в России //Дизайн, технологии и инновации в текстильной и легкой промышленности (ИННОВАЦИИ-2020). – 2020. – С. 98-102.; Кузнецов Г. А., Крупнов Ю. А. Повышение экологической ответственности при формировании цепочек поставок в легкой промышленности //Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. – 2023. – №. 7 (73). – С. 101-106.; Гвилия Н. А., Сызя Л. Адаптация цепей поставок текстильной промышленности Китая к экономическим последствиям новой коронавирусной инфекции //Логистика vs COVID-19: последствия, риски, новые возможности роста: материалы Междунар. науч.-практ. конф. XVI Южно-Российский логистический форум. 29-30 октября 2020 г. – 2020. – С. 106.; Сызя Л. Система оценки эффективности интеллектуальных цепей поставок экологичного текстиля //Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. – 2021. – №. 6 (132). – С. 174-179.; Кошелева Т. Н., Ксенофонтowa Т. Ю., Гуляева О. А. Управление дистрибуцией межрегиональных цепей поставок в рамках взаимодействия с технологиями искусственного интеллекта //Бюллетень результатов научных исследований. – 2024. – №. 1. – С. 97-106.; Савинов Ю. А., Долженко И. Б. Тенденции развития международной торговли текстилем в эпоху POST-COVID //Российский внешнеэкономический вестник. – 2023. – №. 2. – С. 102-112.; Долженко И. Б. Глобализация и изменения в международной торговле текстилем и одеждой //Региональная и отраслевая экономика. – 2024. – №. 2. – С. 112-117.

⁵ Махмудов Н. М., Хомидов С. О., Авазов Н. Р. Инвестициялардан самарали фойдаланиш асосида саноат тармоқларини ривожлантириш //Монография)–Т.:“Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи. – 2020. – Т. 228.; Ёдгорова Ш. Мустиқиллик йилларида Ўзбекистонда тўқимачилик саноатини ривожлантириш йўналишлари //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 119-130.; Abdullayeva S. K., Davlyatova G. M. Тўқимачилик саноати корхоналарининг иқтисодий барқарорлигини инновацион ривожлантириш масалалари //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 6-8. – С. 7-21.; Хайитов Ш. П. Мосланувчан бошқарув тизими асосида тўқимачилик корхоналари барқарор ривожланишини таъминлаш йўллари //Editorial board: Tone Roald, PhD Associate Professor of Psychology University of Copenhagen. – 2021.

Mazkur tadqiqotlarda to'qimachilik sanoatida xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan qiymat zanjirini shakllantirish, korxonalarning xomashyo bilan ta'minlanishi, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etish hamda tayyor mahsulotlarni taqsimlashda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish masalalari ilmiy jihatdan o'rganilgan. Biroq mamlakatimiz olimlari tomonidan to'qimachilik hamda tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmaganligi mazkur muammoning ilmiy-amaliy dolzarbligini belgilaydi

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sanoatda qo'shilgan qiymat yaratishda ishlab chiqarish zanjirini samarali boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini o'rganish;

to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarish ilmiy-metodologik asoslari va zamonaviy modellarini aniqlash;

to'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish qiymat zanjirini boshqarish bo'yicha xalqaro tajribalar va ulardan O'zbekiston amaliyotida foydalanish yo'llarini tadqiq qilish;

to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirining hozirgi holatini tahlil qilish;

to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining ishlab chiqarish zanjirida qo'shilgan qiymat yaratish holatini tahlil qilish;

to'qimachilik klasterlarini ishlab chiqarish zanjirini boshqarish tizimining strategik salohiyatini baholashga yondashuvlar ishlab chiqish;

to'qimachilik korxonalarining global qiymat zanjirini samarali boshqarish yo'llarini aniqlash;

to'qimachilik va tikuv trikotaj sanoatining qo'shilgan qiymat zanjirida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash;

O'zbekiston to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy takliflar tayyorlash;

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasiga a'zo to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini tashkil etuvchi korxonalar tanlangan.

– С. 175.; Хакимов З. А. Трансформация кластеров “Индустрия 4.0” //Иновации и инвестиции. – 2022. – №. 3. – С. 207-213.; Хакимов З.А. yengil sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish omillari. –Т: Iqtisod-moliya, 2016 yil. 216 b.; Бекмуродов А.Ш., Янг Сон Бе. Стратегия развития текстильной промышленности Узбекистана: Кластерный подход. Монография. – Т.: ТГЕУ, 2006. – 112 с.; Boltabaev M.R. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati eksport imkoniyatlarini rivojlantirishda marketing strategiyasi: I.f.d. diss. avtoref. – Toshkent: TDIU, 2005 – 35 b.;

Tadqiqotning predmeti bo‘lib to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarishni takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, kuzatuv hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, o‘rganilayotgan jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi va ta’sir darajasini aniqlash maqsadida korrelyatsion-regression tahlil, simulyatsion modellashtirish hamda klaster tahlili usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “sanoatda ishlab chiqarish zanjirini boshqarish” tushunchasining iqtisodiy mazmuni resurslarni yetkazib berishdan boshlab tayyor mahsulotni bozorga chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarning funksional, vaqt va iqtisodiy jihatdan o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash, zanjir bo‘g‘inlari o‘rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish va qo‘shilgan qiymat yaratish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan boshqaruv tizimi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

to‘qimachilik korxonalarining global qiymat zanjiridagi strategik bozorlarni tanlash modeli import qiluvchi mamlakatlarni strategik ahamiyati va bozordagi xavf darajasi bo‘yicha segmentlarga tabaqalashtirish, eksport portfelini qayta tarkiblash va risk darajasi yuqori bozorlarga qaramlikni pasaytirish tartibini joriy etish hamda ustuvor bozorlar ulushini 50 foizdan yuqori, xavfi yuqori bozorlar ulushini esa 20 foizdan past darajada saqlash mezonini asosida takomillashtirilgan;

to‘qimachilik korxonalarining strategik salohiyatini natijaviy ko‘rsatkichlar hisoblangan savdo va foyda hajmining o‘sishi, bozor ulushi o‘zgarishi, operatsion xarajatlar (ishlab chiqarish, logistika, energiya va boshqa xarajatlar bo‘yicha) kamayishi kabi iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’sirini gipotezalar bo‘yicha olingan yo‘l koeffitsiyentlar asosida “zaif ta’sir” ($0 - 0,19$), “o‘rta ta’sir” ($0,20 - 0,49$), “kuchli ta’sir” ($0,50$ yoki undan yuqori) qiymatlari chegarasida baholangan;

O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida sanoat ishlab chiqarish hajmining 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida ishlab chiqarish zanjirining barcha bo‘g‘inlarini (xomashyo ta’minoti, ishlab chiqarish, logistika, marketing) tahlil qilish va optimallashtirish orqali operatsion xarajatlarni kamaytirishga yo‘naltirilgan strategik boshqaruv modeli ishlab chiqilgan;

tizimli dinamik modellashtirish (System Dynamics Modeling) asosida ishlab chiqarish zanjiridagi kiruvchi va chiquvchi resurs oqimlarini simulyatsiya qilish orqali zanjirning har bir bosqichida muvozanatni ta’minlash resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha muvozanatni ta’minlash va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy yondashuv taklif qilingan;

global bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish doirasida “Kraljic” matritsasi asosida xomashyo ta’minotchilari va mahsulot import qiluvchi bozorlarni strategik toifalash usuli ishlab chiqilib, bu usul korxonalarga global qiymat zanjirida strategik sheriklarni tanlash va bozor xavfini kamaytirish imkonini bergan;

“TBL (Triple Bottom Line) = iqtisodiy + ekologik + ijtimoiy natija” mezonlariga asoslangan boshqaruv tizimi joriy etilib, “yashil mahsulot”, “yashil texnologiya”, “yashil logistika” va “yashil qadoqlash” innovatsiyalar orqali ekologik samaradorlikni oshirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlash bo’yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilg’or xorij tajribalarini o’rganish va umumlashtirilgani, to’qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarish faoliyatini jadal rivojlantirish borasidagi mavjud ilmiy tadqiqot ishlarini qiyosiy va tanqidiy nuqtayi nazardan tahlil qilingani, axborotlar bazasi O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi, “O’zto’qimachilik sanoat” uyushmasi va xalqaro nufuzli tashkilotlarning rasmiy manbalari asosida shakllanganligi va ularning samarali tahlili, jumladan, maxsus dasturlash tizimidan foydalanish orqali qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, ulardan to’qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini samarali boshqarish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash yo’nalishlarida foydalanish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Ushbu natijalar zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarini boyitib, ishlab chiqarish jarayonlari integratsiyasini ilmiy asoslashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqarish zanjiri samaradorligini oshirish bo’yicha innovatsion texnologiyalarni joriy etish, tizimdagi xarajatlarni qisqartirish, sifatni yaxshilash hamda raqobatbardoshlikni mustahkamlashga yo’naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqilishida namoyon bo’ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalardan O’zbekiston Respublikasida to’qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini samarali boshqarish, yuqori qo’shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, tarmoqni diversifikatsiya qilish va eksport salohiyatini oshirishga yo’naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, bu borada amalga oshiriladigan loyihalarni shakllantirish hamda tarmoqni rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini yaratishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To’qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarishni takomillashtirish bo’yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko’ra “sanoatda ishlab chiqarish zanjirini boshqarish” tushunchasining iqtisodiy mazmunini resurslarni yetkazib berishdan boshlab tayyor mahsulotni bozorga chiqarishgacha bo’lgan jarayonlarning funksional, vaqt va iqtisodiy jihatdan o’zaro bog’liqligini ta’minlash, zanjir bo’g’inlari o’rtasidagi

nomutanosibliklarni kamaytirish va qo‘shilgan qiymat yaratish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan boshqaruv tizimi nuqtayi nazaridan takomillashtirish bo‘yicha nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan “Ishlab chiqarish menejmenti” nomli darslik tayyorlashda foydalanilgan. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2023-yil 26-iyundagi, 211-sonli buyruq). Mazkur ilmiy taklifni amaliyotga joriy etish natijasida talabalarda integratsiyalashgan boshqaruv tizimi nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan “sanoatda ishlab chiqarish zanjirini boshqarish” tushunchasi bo‘yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

to‘qimachilik korxonalarining global qiymat zanjiridagi strategik bozorlarni tanlash modelini import qiluvchi mamlakatlarni strategik ahamiyati va bozordagi xavf darajasi bo‘yicha segmentlarga tabaqalashtirish, eksport portfelini qayta tarkiblash va risk darajasi yuqori bozorlarga qaramlikni pasaytirish tartibini joriy etish hamda ustuvor bozorlar ulushini 50 foizdan yuqori, xavfi yuqori bozorlar ulushini esa 20 foizdan past darajada saqlash mezonini asosida takomillashtirish taklifi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2026-yil 4-fevraldagi №02/06-177-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to‘qimachilik korxonalarining global qiymat zanjiridagi strategik bozorlarni tanlash modelini takomillashtirish imkoni yaratilgan;

to‘qimachilik korxonalarining strategik salohiyatini natijaviy ko‘rsatkichlar hisoblangan savdo va foyda hajmining o‘sishi, bozor ulushi o‘zgarishi, operatsion xarajatlar (ishlab chiqarish, logistika, energiya va boshqa xarajatlar bo‘yicha) kamayishi kabi iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’sirini gipotezalar bo‘yicha olingan yo‘l koeffitsiyentlar asosida “zaif ta’sir” (0 – 0,19), “o‘rta ta’sir” (0,20 – 0,49), “kuchli ta’sir” (0,50 yoki undan yuqori) qiymatlari chegarasida baholash taklifi “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2026-yil 4-fevraldagi №02/06-177-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida to‘qimachilik korxonalarining strategik salohiyatini iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholashni takomillashtirish imkoni yaratilgan;

O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida sanoat ishlab chiqarish hajmining ishlab chiqilgan 2030-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (“O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2026-yil 4-fevraldagi №02/06-177-sonli ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning istiqboldagi o‘zgarish tendensiyalarini oldindan baholash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va aprobat siyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 2 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola va 4 ta ma'ruza tezislari chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, uning hajmi 154 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning ilmiy ishlar rejalari bilan aloqadorligi aniqlangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, ilmiy natijalari, ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga tatbiqi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini**» deb nomlangan birinchi bobida sanoatda qo'shilgan qiymat yaratishda ishlab chiqarish zanjirini samarali boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini ochib berilgan. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarish ilmiy-metodologik asoslari yoritilgan va zamonaviy modellari aniqlangan. To'qimachilik sanoatida ishlab chiqarish qiymat zanjirini boshqarish bo'yicha xalqaro tajribalardan O'zbekiston amaliyotida foydalanish yo'llari aniqlangan.

Global bozorning keskin raqobatga asoslangan sharoitida korxonalar faqat xomashyo ishlab chiqaruvchi emas, balki yuqori qayta ishlov berilgan, innovatsion yechimlarga asoslangan, raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi subyektlarga aylanishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, ishlab chiqarish zanjirining har bir bosqichida yaratilayotgan qiymatni tahlil qilish, resurslardan oqilona foydalanish, logistika va ta'minot zanjirlarini muvofiqlashtirish, ilg'or boshqaruv texnologiyalarini joriy etish orqali sanoat tarmoqlarida yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyati paydo bo'ladi.

Iqtisodiyotda "qo'shilgan qiymat" atamasi ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish natijasida hosil bo'ladigan sof iqtisodiy natijani bildiradi. Asosan mahsulotning yakuniy bahosi bilan unga sarflangan resurslar o'rtasidagi tafovut orqali hisoblanadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning to'qimachilik va agrosanoat sohalarida "klaster–qiymat–eksport" modeliga asoslangan yondashuv ijobiy natijalar bermoqda. Bu esa ishlab chiqarish zanjirini kompleks boshqarish muhimligini tasdiqlaydi. Ta'minot zanjirini boshqarish (SCM – Supply Chain Management) – bu korxona bilan uning ta'minotchilari, logistika kompaniyalari va distribyutorlari o'rtasidagi axborot, mahsulot va moliyaviy oqimlarni uyg'unlashtirish jarayonidir. Asosiy maqsad – xarajatlarni kamaytirish, javob berish tezligini oshirish va bozor talabiga moslashishdir. Mazkur holatlarni

inobatga olganda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini samarali boshqarishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish talab etiladi.

Sanoat jarayonlarining samarali ishlashi har bir bosqichda hosil bo'ladigan qiymatning qanday shakllanishiga bog'liq. Xalqaro amaliyotda "Lean management", "Kaizen", "Just-in-Time" kabi ishlab chiqarish zanjirini samarali innovatsion boshqarish bo'yicha ko'plab modellar shakllangan va raqamli iqtisodiyot sharoitida narsalar interneti (IoT), sun'iy intellekt (AI), katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), kibr-fizik tizimlar hamda simulyatsion modellashtirish kabilardan foydalanish yuqori ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuvlar sanoat siyosatida qiymat zanjirining har bir bo'g'inida natijadorlikka erishish, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

To'qimachilik sanoatining ishlab chiqarish zanjirini boshqarishda zamonaviy modellari va ularda shakllangan konseptual yondashuvlarga asoslanib, ikkita nazariy modelni birgalikda qo'llash maqsadga muvofiq, jumladan:

ichki integratsiya modeli – bu klaster yondashuviga tayanib, sanoat korxonalararo hamkorlikni, resurslar sinergiyasini va o'zaro texnologik bog'liqliklarni samarali boshqarishga qaratilgan yondashuv.

global qiymat zanjiri modeli – bu esa xalqaro ishlab chiqarish segmentlash sharoitida har bir bo'g'inning qiymat yaratishdagi rolini tahlil qilish va strategik integratsiya shakllarini aniqlash imkonini beradigan yondashuv.

Mazkur ikki model uyg'unligi sanoat tizimlarining kompleks tahlilini, boshqaruv mexanizmlarining optimallashtirishini va raqamli transformatsiyaga moslashuvchanlikni ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ular ilmiy jihatdan ishonchli va amaliyotda qo'llashning konseptual asosni tashkil etadi.


Sanoatda ishlab chiqarish zanjiri asosan xomashyo yetkazib berish, uni qayta ishlash, yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, yakuniy mahsulot yaratish, logistika xizmatlari, marketing va sotuv tizimini o'z ichiga olgan kompleks tizim sifatida talqin qilinadi.

Ishlab chiqarish zanjirini boshqarish esa resurslarni yetkazib berishdan boshlab tayyor mahsulotni bozorga chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarning funksional, vaqt va iqtisodiy jihatdan o'zaro bog'liqligini ta'minlash, zanjir bo'g'inlari o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirish va qo'shilgan qiymat yaratish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan boshqaruv tizimi sifatida qaralishi lozim. Nazariy-metodologik jihatdan taklif etilgan yondashuv qiymat zanjiri, ta'minot zanjirini boshqarish va operatsion menejment yo'nalishlarini konseptual jihatdan birlashtiradi. Mavjud ta'riflarda alohida ko'rib chiqilgan ikki masala - bo'g'inlararo nomutanosibliklar va qo'shilgan qiymat samaradorligi-nomutanosibliklarni kamaytirish va qo'shilgan qiymat samaradorligini oshirish" sabab-natija aloqasi boshqaruv tizimining ichki mantiqiga aylantiriladi. Vaqt o'lchovi tushunchaning iqtisodiy mazmunining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ifodalanadi, bu esa lean, agile va resilient management maktablarining tahlili uchun asos bo'ladi.

Zamonaviy ishlab chiqarish zanjirini boshqarish yondashuvlari korxonalarni faqat ichki jarayonlar bilan cheklanib qolmasdan, balki butun ta'minot zanjiri

bo‘ylab hamkorlik qilishga undaydi. Bu esa, o‘z navbatida, mahsulot sifati, yetkazib berish tezligi va mijozlar ehtiyojini qondirish darajasini oshirishga xizmat qiladi. Bunday zamonaviy modellar sifatida “Lean yondashuvi”, barqarorlik modeli, “yashil ta’minot zanjiri” modellarini qo‘llashga asoslangan konsepsiyalar ustun hisoblanadi. Bundan tashqari, SCOR (Supply Chain Operations Reference) ta’minot zanjiri operatsiyalari ma’lumotnomasi modeli ham keng qo‘llaniladi.

Olib borilgan nazariy tadqiqotlar asosida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish qiymat zanjirini innovatsion boshqarishga asoslangan modeli 1-rasmda taklif etiladi.



1-rasm. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish qiymat zanjirini boshqarish konsepsiyalari va innovatsion yondashuvlar⁶

Modelda to‘qimachilik va tikuv trikotaj sanoatida xom ashyodan tortib tayyor mahsulotni iste’molchiga yetkazishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda innovatsion menejment yondashuvlaridan foydalanish yo‘nalishlari belgilab berilgan. Shu

⁶ Muallif ishlanmasi

jumladan, mahsulot sifati va yangi texnologiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, mahsulot dizayni va modasi, ishlab chiqarish jarayonida avtomatlashtirilgan mashinalar, mashtablanuvchi dizayn boshqaruvi, yashil ishlab chiqarish, ekologik barqaror menejment, raqamli transformatsiya (IoT, sun'iy intellekt, Big Data) va zamonaviy logistika boshqaruvi tizimlarining o'rnini ko'rsatib beradi. Taklif etilgan yondashuvlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan foydalanishning optimal darajasini ta'minlash, mahsulot sifatini yaxshilash, xarajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, ekologik barqarorlikni kuchaytirish, mijoz talablariga moslashuvchanlikni oshirish, shuningdek, bozorda raqobatbardosh ustunlik yaratishga xizmat qiladi. Shu tariqa, innovatsion menejment usullari va zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonida innovatsion rivojlanishning ilmiy asoslangan yo'l xaritasini ta'minlaydi.

Xalqaro tajribalardan ma'lum bo'ladiki, Xitoyning "Just-in-Time" va "Lean Manufacturing" kabi ishlab chiqarish modellarini qo'llash orqali zaxiralarni optimallashtirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, zaxira boshqaruvi ERP (Enterprise Resource Planning) tizimi, kooperatsion ishlab chiqarish tarmoqlari (xomashyo → ip → mato → tayyor kiyim → eksport) ni rivojlantirish, IT platformalar orqali raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, Vyetnamda to'qimachilik sanoati ishlab chiqarishda CMT (Cut-Make-Trim)-Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan materiallar asosida faqat tikuv va bezak ishlari bajarish tizimi, Bordga yetkazib berish sharti bo'yicha yetkazib berish modeli (FOB) modeli, Asl brend ostida ishlab chiqarish modeli (OBM) modellaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish muhim yo'nalishlar sifatida qaraldi.


Dissertatsiyaning **"To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarining holati va tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirining boshqarishning holati statistik tahlil qilingan. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining ishlab chiqarish zanjirida qo'shilgan qiymat yaratish holati tahlil qilingan. To'qimachilik klasterlarini ishlab chiqarish zanjirini boshqarish tizimining strategik salohiyatini baholangan.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan to'qimachilik sanoati mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu tarmoq xomashyo yetishtirish, qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish kabi to'liq ishlab chiqarish sikliga ega bo'lgan tarmoq sifatida shakllangan. O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi, bu esa to'qimachilik sanoatining rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi. To'qimachilik sanoatida klaster tizimi asosida ishlab chiqarish va qayta ishlash jarayonlari yo'lga qo'yilgan. To'qimachilik sohasining barqaror rivojlanishi uchun faqatgina xomashyo salohiyati emas, balki samarali boshqaruv, raqamlashtirish va xavf omillarini oldindan aniqlash mexanizmlarining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, O'zbekistonda to'qimachilik tarmog'ini rivojlantirish, uni ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh qilish, ishlab chiqarish

zanjirining barcha bo'g'inlarini chuqur tahlil qilish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati tarkibiy jihatdan bir nechta bosqichli va vertikal integratsiyalashgan tarmoqdan iborat. U xomashyo yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulotni eksport qilishgacha bo'lgan to'liq ishlab chiqarish zanjirini o'z ichiga oladi. Bu tuzilma bir tomondan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirsa, ikkinchi tomondan, logistik kechikishlar va resurslar yo'qotilishini kamaytiradi.

O'zbekistonning to'qimachilik sanoati 2017-2024-yillarda ishlab chiqarish zanjirining har bir bo'g'inida aniq o'sish sur'atlarini namoyon qilgan (2-rasm).



2-rasm. 2017–2024-yillar davomida paxta tolasi ishlab chiqarish va qayta ishlash darajasi⁷


2017-yilga kelib, mamlakat bo'yicha paxta tolasi ishlab chiqarish hajmi 468 ming tonnani tashkil etgan bo'lsa-da, ushbu mahsulotning atigi 40 foizi qayta ishlangan edi. 2021-yildan boshlab, paxta tolasi to'liq hajmda — 100 foiz miqdorida — mahalliy korxonalar tomonidan qayta ishlana boshlandi. Bu jarayon, bir tomondan, to'qimachilik sanoatida ichki mahsulot zanjirining yaxlitlashuviga olib keldi, ikkinchi tomondan esa eksportga xomashyo emas, tayyor mahsulot yuborilishi yo'lini ochdi.

Gazlama ishlab chiqarish bo'yicha ham ijobiy dinamika kuzatilmoqda. 2017-yilda ishlab chiqarilgan gazlama hajmi 370,5 million kvadrat metrni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 1 milliard kvadrat metrdan oshgan. Gazlama mahsulotlarining umumiy qiymati esa 1,66 trillion so'mdan 6,3 trillion so'mgacha oshgan. Bu esa mahsulot turlarining xilma-xilligini, ichki va tashqi bozordagi talabning o'sishini ko'rsatadi.

Tikuv-trikotaj mahsulotlari bo'yicha ishlab chiqarish 2017-yildagi 5,97 trillion so'mdan 2024-yilda 56 trillion so'mga yetgan. Bu 9 barobardan ortiq o'sishni anglatadi (3-rasm). Ushbu tendensiya sohada yuqori qo'shilgan qiymat yaratish

⁷ "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi ma'lumotlari

bo'yicha amalga oshirilayotgan mahsulot turlari ko'payganini, dizayn va sifat mezonlariga bo'lgan talab kuchayganini va ichki hamda tashqi bozorlar uchun tayyor mahsulot ishlab chiqarish salohiyatining sezilarli oshganini bildiradi.



3-rasm. To'qimachilik sanoatida iste'mol tovarlari ishlab chiqarishni rivojlanishi⁸

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida mahsulotlarni ichki va tashqi bozorga yetkazish zanjiri ishlab chiqarishning yakuniy va muhim qismini tashkil etadi. Mahalliy bozorlar uchun esa markazlashgan logistika tizimi tashkil qilingan bo'lib, bu tizim ichki ishlab chiqaruvchilarning tovarlarni viloyatlar bo'yicha tarqatishda zamonaviy monitoring vositalaridan foydalanishini ta'minlamoqda. O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining eksport 2024-yilda mahsulot turlari bo'yicha eksport qamrovi sezilarli darajada kengaygan. Eng ko'p eksport qilinayotgan mahsulot turi tikuv-trikotaj mahsulotlari bo'lib, bu yo'nalishda 64 ta davlat bilan savdo aloqalari o'rnatilgan. Shuningdek, paxta ip-kalavasi mahsulotlari 62 ta davlatga, paxta matolari esa 35 ta, trikotaj gazlama mahsulotlari 24 ta hamda paypoq mahsulotlari esa 19 ta davlatga eksport qilinmoqda. O'zbekiston to'qimachilik sanoati yangi eksport bozorlari va xorijiy sarmoyalarni jalb etish orqali global ishlab chiqarish va ta'minot zanjirlariga integratsiyalashish bosqichiga o'tmoqda. Olib borilgan investitsiya loyihalari asosida paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatida qiymat zanjirining barcha bosqichlarida mahsulot ishlab chiqarish quvvatlari yuqori darajada kengayishi kuzatilmoqda (2-jadval).

To'qimachilik korxonalarining ishlab chiqarish zanjirini boshqarish tizimining strategik salohiyatini kompleks baholash ilmiy-uslubiy jihatdan muhim bo'lib, u zamonaviy klaster boshqaruvi nazariyalari, logistik optimallashtirish, raqamli transformatsiya va eksport salohiyatining rivojlanish dinamikasini o'z ichiga olgan ko'p omilli yondashuvni talab etadi. Shunga ko'ra to'qimachilik sanoatida klaster asosidagi ishlab chiqarish zanjirining boshqaruv tizimi aniqlanib, ularning strategik

⁸ "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi ma'lumotlari

ustuvorliklari, mavjud zaxiralari va takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

2-jadval

To‘qimachilik klasterlarining qo‘shilgan qiymat yaratish zanjiridagi mavjud quvvatlarni kengayishi⁹

Ishlab chiqarish zanjiri	2021	2025
Paxta tolasini qayta ishlash, tonna	2039822	2694376
Ip kalava ishlab chiqarish, tonna	723065	995281
Mato ishlab chiqarish, ming.kv.m	238010	314463
Bo‘yash, pg.m.	174068	182316
Tayyor mahsulot, ming dona	161467	532815
Chigitni qayta ishlash, tonna	731730	1294252

To‘qimachilik korxonalarning strategik salohiyatini aniqlash uchun “O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari” uyushmasi, “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi tomonidan onlayn shaklida anketa so‘rovnomalar o‘tkazilgan bo‘lib, o‘rganishlar jami 320 ta korxonada, shu jumladan 110 ta paxta to‘qimachilik klasterlarida amalga oshirilgan. Tadqiqotda to‘qimachilik klasterlarining strategik boshqaruv salohiyatini 9 ta yo‘nalish bo‘yicha jami 62 ta indikator asosida baholash amalga oshiriladi. Shunga ko‘ra, tadqiqotda yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilish uchun ko‘p o‘zgaruvchini statistik usullardan foydalanilgan. Bog‘liq omil sifatida strategik salohiyat darajasi qabul qilinadi. Strategik salohiyatning natijaviy ko‘rsatkichi sifatida quyidagilar tanlangan: savdo hajmi o‘sishi; foyda hajmining o‘sishi; bozor ulushi o‘zgarishi (ichki yoki tashqi bozorlar uchun); operatsion xarajatlar kamayishi. Mazkur 4 ta omillarning baholashda 3-jadval ko‘rsatkichlari asosida shkalalashtiriladi.

3-jadval

Strategik salohiyatning (Ss) natijaviy ko‘rsatkichlarini shkalalashtirish mezonlari¹⁰

Indikatorlar	Ball	Baholash mezonlari
Savdo hajmi o‘sishi (% yillik asosda)	1	0% yoki pasayish (savdo hajmi kamaygan)
	2	1% – 5% gacha o‘shish (sekin o‘shish)
	3	6% – 10% o‘shish (o‘rtacha o‘shish)
	4	11% – 20% o‘shish (tez o‘shish)
	5	21% va undan ortiq o‘shish (barqaror yuqori o‘shish)
Foyda hajmining o‘sishi (% yillik asosda)	1	Yo‘qotish (foyda yo‘q yoki zarar)
	2	1% – 4% o‘shish (minimal rentabellik)
	3	5% – 10% (o‘rtacha foyda o‘sishi)
	4	11% – 20% (yuqori foyda o‘sishi)
	5	21%+ (juda yuqori darajada samarali foyda)
Bozor ulushi o‘zgarishi (ichki yoki tashqi bozorlar uchun)	1	Bozor ulushi kamaygan (raqobatda yo‘qotilgan)
	2	Bozor ulushi o‘zgarmagan
	3	1% – 2% ga oshgan

⁹ “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi ma’lumotlari

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

Operatsion xarajatlar kamayishi (ishlab chiqarish, logistika, energiya va boshqa xarajatlar bo'yicha)	4	3% – 5% ga oshgan
	5	5 % + ga oshgan
	1	Xarajatlar oshgan
	2	Xarajatlar o'zgarmagan
	3	1% – 5% gacha kamaygan
	4	6% – 10% kamaygan (samarali resurs boshqaruvi)
	5	11%+ kamaygan (tejamkorlik siyosati natijasida yirik kamayish)

Strategik salohiyatning natijaviy ko'rsatkichlarini shkalalashtirish mezonlari ham ekspert fikriga asoslangan yoki real moliyaviy hisobotlardan olinadigan raqamli baholar asosida Likert shkalasiga o'giriladi. To'qimachilik korxonalarining strategik salohiyatini 9 ta asosiy omil asosida baholash uchun PLS modeli qo'llanilib, SmartPLS paket dasturidan foydalanilgan. PLS modellashtirish uchun kiritilgan gipotezalarni bo'yicha olingan yo'l koeffitsiyentlar asosida (Path Coefficients) asosida tekshiriladi va mazkur qiymatlar quyidagicha qabul qilinadi: 0.00–0.19 – zaif ta'sir; 0.20–0.49 – o'rta ta'sir; 0.50 yoki undan yuqori – kuchli ta'sir.

To'qimachilik korxonalarining 9 ta mezon va 64 ta strategik boshqaruv salohiyatini aks ettiruvchi indikatorlar asosida natijaviy ko'rsatkichlar hisoblangan savdo hajmi o'sishi, foyda hajmining o'sishi, bozor ulushi o'zgarishi, operatsion xarajatlar kamayishi (ishlab chiqarish, logistika, energiya va boshqa xarajatlar bo'yicha) kabi iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash natijalari 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

To'qimachilik korxonalarining strategik boshqaruv faoliyatini iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sirini baholash¹¹

Mustaqil o'zgaruvchilar (qn)	Bog'liq o'zgaruvchi – strategik salohiyati(Ss)	Ta'sirlar
q1n -Korxonaning tashkiliy infratuzilmasini boshqarish	-0,034	Zaif salbiy ta'sir
q2n -Korxonalarda inson resurslarini boshqarish	-0,033	Zaif salbiy ta'sir
q3n -Ta'minot tizimini boshqarish	0,126	Zaif ijobiy ta'sir
q4n -Texnologik rivojlanishni boshqarish	-0,052	Zaif salbiy ta'sir
q5n -Kiruvchi logistika tizimlarini boshqarish	0,025	Zaif ijobiy ta'sir
q6n -Ishlab chiqarish tizimlarini boshqarish	-0,491	Kuchli salbiy ta'sir
q7n -Taqsimot kanallarini boshqarish	0,007	Zaif ijobiy ta'sir
q8n -Marketing faoliyatini boshqarish	-0,231	O'rtacha salbiy ta'sir
q9n -Servis tizimini boshqarish	-0,006	Zaif salbiy ta'sir

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoati korxonalari strategik boshqaruv salohiyati bo'yicha differensial rivojlanish holatida. Yuqorida sanab o'tilgan kuchli va zaif jihatlar asosida to'qimachilik klasterlarida klaster ichida ichki islohotlar, tashqi bozor strategiyalari va innovatsion texnologiyalar integratsiyasi asosida strategik rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

¹¹ Muallif tomonidan tuzilgan

Dissertatsiyaning **“To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarishni takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida to‘qimachilik korxonalarining global qiymat zanjirini samarali boshqarish yo‘llari aniqlangan. To‘qimachilik va tikuv trikotaj sanoatining qo‘shilgan qiymat zanjirida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘llari aniqlangan. O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish zanjirini boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati mamlakatning eng muhim eksport sektori hisoblanadi. Paxta xomashyosidan tayyor mahsulotgacha bo‘lgan to‘liq sikl mavjudligi, mehnat resurslarining arzonligi va xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlari ushbu sohaning strategik ahamiyatini yanada oshiradi. Lekin eksport jarayonlari ko‘plab omillar — material ta‘minoti, ishlab chiqarish, logistika, tashqi bozor talablari, xavflar va narx o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq. Bu murakkab muhitda eksport jarayonidagi resurslar, komponentlar va bozorlarga strategik yondashuvni ta‘minlaydigan samarali boshqaruv vositasi zarur. Mazkur yondashuvlarni aniqlash uchun Kraljic Portfolio matritsasidan (KPM) foydalanish maqsadga muvofiq. KPM to‘rt asosiy blokdan iborat bo‘lgan kvadrantlarga O‘zbekiston to‘qimachilik mahsulotlari eksport qiluvchi davlatlarni joylashtirish orqali, eng samarali taqsimotni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan mamlakatni aniqlash va strategik qarorlar qabul qilishga imkon beradi. O‘zbekistonning to‘qimachilik mahsulotlari eksporti bo‘yicha 2024-yildagi ma’lumotlar asosida Kraljic matritsasi uchun mos indikatorlarni tanlanadi.

Guruhlash ham bir indikatorlarning o‘rtacha qiymatlariga nisbatan yuqori va past ko‘rsatkichlar asosida amalga oshiradi. O‘zbekistonning trikotaj yoki trikotaj bo‘lmagan kiyim-kechak buyumlari va aksessuarlar mahsulotlari eksporti ko‘rsatkichlari asosida KPM bo‘yicha eksport foydasi matritsasi uchun mamlakatlarni guruhlanadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida trikotaj yoki trikotaj bo‘lmagan kiyim-kechak buyumlari va aksessuarlar mahsulotlari eksport ko‘rsatkichlari bo‘yicha KPM modeli asosida ta’sir darajasiga hamda bozordagi risk darajasiga ko‘ra bozorlarga qaramlikni pasaytirish tartibini joriy etish imkoni mavjud.

O‘zbekistonning trikotaj yoki trikotaj bo‘lmagan kiyim-kechak buyumlari va aksessuarlar mahsulotlari eksporti ko‘rsatkichlari asosida KPM bo‘yicha eksport foydasi matritsasi uchun mamlakatlarni guruhlash quyidagi shartlar orqali amalga oshiriladi:

$$f(X_n) = \begin{cases} B, & \text{agar } X_n \leq \hat{X}_n \\ A & \text{aksholda} \end{cases}$$

Bu yerda,

X_n — tanlangan omillar bo‘yicha mamlakatning qabul qilingan qiymati;

$\hat{X}_n$ — tanlangan omillar bo‘yicha mamlakatning qabul qilingan o‘rtacha qiymat;

n — omil raqami

A va B – tanlangan shart bo'yicha mamlakat guruhi

KPM modelining “eksport foydasi” matritsasiga mos keluvchi guruhlash quyidagi omillar 5-jadval indikatorlari asosida amalga oshiriladi.

5-jadval

Kraljic Portfolio Matrix asosida mamlakatlarni guruhlash¹²

KPM mezonlari	Xususiyati	Hisoblash indikatorlari
Eksport foydasi (Profit Impact)	Mamlakatning eksportdagi strategik ahamiyati	X1 -eksport hajmi; X2 -savdo balansi; X4-2020-2024-yillarda eksportni o'sish sur'ati; X5-2023-2024-yillarda eksportni o'sish sur'ati; X3 -eksportidagi ulushi;
Ta'minot riski (Supply Risk)	Logistika, siyosiy yoki iqtisodiy xavf darajasi	Y1-Hamkor mamlakatning jahon importidagi o'rni (reytingi); Y2-Hamkor mamlakatning jahon importidagi ulushi, foiz; Y3-2020-2024-yillarda hamkor mamlakatning importini o'sishi, %; Y4-Hamkor davlatlar va ularning barcha yetkazib beruvchi bozorlari orasidagi o'rtacha masofa, km; Y5-Hamkor mamlakatlarning barcha yetkazib beruvchi mamlakatlari konsentratsiyasi; Y6-O'zbekistonning eksport faoliyatida duch kelgan o'rtacha tarifi, %.

Guruhlash natijalariga ko'ra KPM modeli bo'yicha 6-jadval tuzilgan. PCA indikatorlari orqali hosil qilingan har bir mamlakat uchun (PI, SP) koordinatalari bo'yicha mamlakatlarni guruhlash natijalari 6-jadvalda aks etgan.

6-jadval

KPM matritsasiga guruhlangan mamlakatlarni (FT, TX) mezonlari asosida joylashtirish¹²

Mamlakatlar	Foyda ta'siri	Ta'minot xavfi	Kvadrant	Mamlakatlar	Foyda ta'siri	Ta'minot xavfi	Kvadrant
Rossiya Federatsiyasi	FT+	TX-	Ustun	Kanada	FT-	TX+	To'siqli
Germaniya	FT+	TX+	Strategik	Niderlandiya	FT-	TX-	Oddiy
Afg'oniston	FT+	TX+	Strategik	Xitoy	FT-	TX-	Oddiy
Qirg'iziston	FT+	TX-	Ustun	AQSh	FT-	TX-	Oddiy
Qozog'iston	FT+	TX-	Ustun	Saudiya Arabistoni	FT-	TX-	Oddiy
Polsha	FT+	TX+	Strategik	Daniya	FT-	TX+	To'siqli
Turkmaniston	FT-	TX+	To'siqli	Avstraliya	FT-	TX-	Oddiy
Belarus	FT-	TX-	Oddiy	Gruziya	FT-	TX-	Oddiy
Isroil	FT-	TX-	Oddiy	Fransiya	FT-	TX+	To'siqli
Armaniston	FT-	TX-	Oddiy	Ruminiya	FT-	TX-	Oddiy
Tojikiston	FT-	TX+	To'siqli	Latviya	FT-	TX-	Oddiy
Birlashgan Arab Amirliklari	FT-	TX-	Oddiy	Ispaniya	FT-	TX+	To'siqli
Ozarbayjon	FT-	TX-	Oddiy	Livan	FT-	TX-	Oddiy
Ukraina	FT-	TX-	Oddiy	Yaponiya	FT-	TX+	To'siqli
Irlandiya	FT-	TX-	Oddiy	Belgiya	FT-	TX-	Oddiy

¹² Muallif tomonidan tayyorlandi.

Moldova Respublikasi	FT-	TX-	Oddiy	Eron Islom Respublikasi	FT-	TX+	To'siqli
Italiya	FT-	TX-	Oddiy	Malayziya	FT-	TX-	Oddiy
Sloveniya	FT-	TX-	Oddiy				

Izoh: FT — Foyda ta'siri (Profit Impact); TX — Ta'minot xavfi (Supply Risk); Belgilar: FT+ — yuqori foyda ta'siri; FT–past foyda ta'siri; TX+ — yuqori ta'minot xavfi; TX– — past ta'minot xavfi; Kvadrantlar (Kraljic matritsasi bo'yicha): Strategik (FT+, TX+) — yuqori foyda, yuqori xavf; Ustun (FT+, TX–) — yuqori foyda, past xavf; To'siqli (FT–, TX+) — past foyda, yuqori xavf; Oddiy (FT–, TX–) — past foyda, past xavf.

Kraljic Portfolio matritsasining har bir kvadrantidagi strategik turlarni chuqur va tizimli tushuntirib beradi. To'qimachilik mahsulotlari eksporti yoki mahsulotlarni samarali taqsimoti menejment siyosati uchun esa risk darajasi yuqori bozorlarga qaramlikni pasaytirish tartibini joriy etish hamda ustuvor bozorlar ulushini 50 foizdan yuqori, xavfi yuqori bozorlar ulushini esa 20 foizdan past darajada saqlash talab etiladi. To'qimachilik mahsulotlarining tashqi ta'minot zanjirini samarali tashkil etish uchun quyidagilarga ahamiyat qaratilishi lozim:

1. Strategik bozorlar – PI+, SR+. Ushbu toifadagi mamlakatlar (masalan, Germaniya, Afg'oniston, Polsha) yuqori daromad olib kelishiga qaramay, ta'minot xavfi ham yuqori. Bu toifada O'zbekistonning eksport siyosatini do'stona munosabatlar, ikki tomonlama bitimlar, logistik aloqalarni mustahkamlash va xavfni diversifikatsiya qilish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq.

2. Raqobat afzallikka ega bozorlar – PI+, SR–. Rossiya, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi mamlakatlar yuqori eksport daromadi hamda past ta'minot xavfiga ega bo'lib, muzokaralar olib borish, narxni optimallashtirish va bozordagi ulushni oshirish imkoniyatini beradi. Bu bozorlarda O'zbekiston o'z raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun eksport markazlari, logistika xabarlar va elektron savdo platformalari orqali qo'shimcha qiymat yaratishi mumkin.

3. To'siqli bozorlar – PI–, SR+. Bu toifaga Kanada, Daniya, Fransiya, Yaponiya, Eron va shu kabi boshqa mamlakatlar kiradi. Ularda eksport hajmi kichik bo'lishiga qaramay, siyosiy yoki logistik xavflar yuqori. Bu bozorlar uchun asosiy strategiya – alternativ bozorlar tayyorlash, ehtiyot eksport rejalarini shakllantirish va mahsulotni diversifikatsiya qilishdan iborat.

4. Odatiy bozorlar – PI–, SR–. Mazkur toifadagi 20 dan ziyod mamlakatlar (m-n, Niderlandiya, Xitoy, AQSH, Avstraliya, Italiya, Belgiya) past daromad va past xavf darajasiga ega. Bu bozorlar uchun operativ, avtomatlashtirilgan va kam xarajatli eksport siyosatini yuritish, standartlashtirilgan logistika va raqamli platforma asosida mahsulot yetkazib berish maqsadga muvofiqdir.


Zamonaviy sanoat siyosati doirasida to'qimachilik sanoati nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini ham qamrab oluvchi keng qamrovli strategik yondashuvni talab qiladi. Xususan, ushbu yondashuv to'qimachilik sanoatining butun qo'shilgan qiymat zanjiri bo'ylab (xomashyo yetishtirishdan tortib chiqindilarni boshqarishgacha bo'lgan jarayonlarda) barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) tatbiq etishni nazarda tutadi.

To'qimachilik sanoatida barqaror rivojlanish maqsadlarining yakuniy maqsadi mahsulotlari hayotiylik davri so'ngida chiqindi emas, balki yangi mahsulotlar uchun

xomashyo sifatida qayta ishlanadigan yopiq zanjirli modellar, ya'ni aylanma iqtisodiyot modellarini shakllantirish yotadi.

To'qimachilik va tikish-trikotaj sanoatidagi qo'shilgan qiymat zanjirini barqaror rivojlantirish uchun menejment va boshqaruv strategiyalari faoliyatning har bir bosqichida qo'llanilishi kerak. Bular orqali resurslar samarali boshqariladi, chiqindilar kamaytiradi, ijtimoiy mas'uliyat ta'minlanadi va raqobatbardoshlik oshadi. To'qimachilik mahsulotlari qo'shilgan qiymat zanjirida barqaror menejment tamoyillariga asoslangan strategiyalarni tizimli tasnifi va asosiy yondashuvlar quyidagilar: TBL = iqtisodiy + ekologik + ijtimoiy natija, sifat menejment tizimlari, aylanma iqtisodiyot modellariga mijozlarni moslashtirish, raqamli transformatsiya, IoT-ni qo'llab-quvvatlaydigan monitoring asosida boshqarish, ma'lumotlarga asoslangan rejalashtirish va boshqalar.

To'qimachilik sanoati korxonalarning ishlab chiqarish zanjirining barcha bo'g'inlariga xos bo'lgan "TBL (Triple Bottom Line) = iqtisodiy + ekologik + ijtimoiy natija" uchinchi samara mezonlari menejmentini tashkil etishga yo'naltirilgan tizimni qurishga yordam beradigan strategik model hisoblanadi. Buning asosiy mazmuni to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlari "iqtisodiy + ekologik + ijtimoiy" natijaga yo'naltirilgan menejmentni tashkil etishni talab etadi. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish zanjiri bosqichma-bosqich texnologik jarayonlardan iborat bo'lib, har bir bo'g'inda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sirlar mavjud. Ushbu ilmiy ishda ishlab chiqarish zanjirining har bir bosqichida **Triple Bottom Line (TBL)** tamoyillariga asoslangan "uchinchi samara mezonlari" menejmentini shakllantirishga bo'lgan mexanizm 4-rasmda taklif etiladi.



4-rasm. To'qimachilik sanoatida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy natija samara mezonlari menejmenti¹³

4-rasmda ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarida (xomashyo yetishtirish → tola qayta ishlash → ip yigirish → mato to'qish → bo'yash va bezash → tikuv/trikotaj → qadoqlash → logistika → sotuv → qayta ishlash) yashil menejment tamoyillari asosida yashil mahsulot, yashil texnologiya, yashil logistika, yashil qadoqlash innovatsiyalari joriy etishga qaratilgan strategik yondashuvlardan

¹³ Muallif ishlanmasi

foydalanish talab etiladi. Barcha TBL natijalari Yashil Menejment tizimi orqali boshqariladi va ishlab chiqarish zanjiriga strategik tarzda integratsiya qilinadi. Bu yondashuv natijasida to‘qimachilik sanoatida uzoq muddatli ekologik samaradorlik, ijtimoiy mas’uliyat va iqtisodiy barqarorlikka erishiladi.

Zamonaviy sharoitda ishlab chiqarish zanjirini samarali boshqarish innovatsion texnologiyalarni joriy etish, raqamlashtirish, logistika tizimlarini optimallashtirish hamda korxonalar o‘rtasida integratsiyani kuchaytirishni talab etadi. Ayniqsa, “aqlli” ishlab chiqarish, ERP va SCM tizimlari, klasterlashuv modeli va eksportga yo‘naltirilgan strategiyalarni rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda. Mintaqaviy va global iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining ishlab chiqarish zanjirini boshqarishni takomillashtirish dolzarb iqtisodiy va ilmiy muammoga aylangan.

Yuqorida bayon etilgan nazariy asoslarga tayangan holda tadqiqotning empirik qismida quyidagi besh asosiy gipotezani shakllantirilgan:

H₁ – vertikal integratsiya darajasining oshishi paxta-to‘qimachilik klasterlarida qo‘shilgan qiymat ulushining sezilarli oshishiga olib keladi.

H₂ – raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish (raqamli ishlab chiqarish liniyalari, IoT sensorlar, ERP/MES tizimlari) operatsion samaradorlikni oshiradi.

H₃ – sintetik va aralash tolalar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish to‘qimachilik importining diversifikatsiyalash va o‘rtacha qo‘shilgan qiymatni oshirish imkonini beradi.

H₄ – paxta-to‘qimachilik klasterlari soni va eksport hajmi o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli sababiy bog‘liqlik mavjud.

H₅ – Yevropa Ittifoqining ESPR talablariga moslashish va GSP+ imtiyozlaridan to‘liq foydalanish 2030-yilga qadar O‘zbekistonning EI bozoriga eksportini oshirish imkonini beradi.

Mazkur gipotezalarni asoslash uchun “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasining 2015-2025-yillar uchun shakllantirilgan to‘liq vaqt qatori ma’lumotlar asosida ARDL (Autoregressive Distributed Lag) modelidan foydalaniladi. Bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida to‘qimachilik mahsulotlari fizik hajm indeksi tanlangan. Mustaqil o‘zgaruvchilar quyidagilar:

E₁ - to‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi (mln. AQSh dollari);

L₃ - to‘qimachilik tarmog‘idagi yuridik shaxs xodimlarining soni (ming nafar);

L₇ - paxta-to‘qimachilik klasterlari soni (birlik);

L₆ - to‘qimachilik korxonalari soni (birlik);

P₅ - paxta tolasini qayta ishlash darajasi (foiz);

S₀ - sanoat tarmog‘ining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi (foiz).

ARDL modelining umumiy ko‘rinishini formulaviy jihatdan to‘g‘ri yozilishi:

$$\Delta I_{2t} = \alpha + \sum_{j=1}^p \beta_j \Delta I_{2,t-j} + \sum_{j=0}^q \gamma_j \Delta \ln E_{1,t-j} + \sum_{j=0}^r \delta_j \Delta \ln L_{3,t-j} + \sum_{j=0}^s \theta_j \Delta L_{7,t-j} + \lambda ECT_{t-1} + \varepsilon_t$$

bu yerda,

ECT – xatoliklarni tuzatish hadi;

λ - uzoq muddatli muvozanatga qaytish tezligi koeffitsiyenti.

Ekspontensial trendga ega o'zgaruvchilar (eksport, bandlik, korxonalar) tabiiy logarifmga o'zgartirilgan va asosiy ARDL(1,1,0,0) modeli quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$Y_{I_2,t} = \alpha_0 + \alpha_1 Y_{I_2,t-1} + \beta_0 \ln(E_{1,t}) + \beta_1 \ln(E_{1,t-1}) + \gamma \ln(L_{3,t}) + \delta L_{7,t} + \varepsilon_t$$

Bu yerda:

$Y_{I_2,t}$ — ishlab chiqarish indeksi

$Y_{I_2,t-1}$ — uning kechikkan (lag) qiymati

$E_{1,t}$ — eksport

$L_{3,t}$ — bandlik

$L_{7,t}$ — boshqa omil (masalan, klasterlar soni)

ε_t — tasodifiy xatolik hadi

Tasodifiy had xossasi:

$$\varepsilon_t \sim N(0, \sigma^2)$$

ya'ni:

o'rtacha qiymati 0

dispersiyasi doimiy

kuzatuvlar o'zaro bog'liq emas (i.i.d.)

7-jadval

ARDL(1,1,0,0) modelining OLS estimatsiya natijalari¹⁴

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent (β)	Standart xato (SE)	t-statistika	p-qiymat	95% CI
Konstanta (α_0)	220,1573	168,7365	1,305	0,262	[-248; 689]
$Y_{I_2,t-1}$ (α_1)	-0,0628	0,5169	-0,122	0,909	[-1,5; 1,4]
$\ln(E_{1,t})$ (β_0)	5,7454	18,7370	0,307	0,774	[-46; 58]
$\ln(E_{1,t-1})$ (β_1)	-11,1359	9,9958	-1,114	0,328	[-39; 17]
$\ln(L_{3,t})$ (γ)	-14,4607	29,1788	-0,496	0,646	[-95; 67]
$L_{7,t}$ (δ)	0,1603	0,1786	0,898	0,420	[-0,3; 0,7]

ARDL(1,1,0,0) modeli asosida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining prognoz qiymat 8-jadvalda keltirilgan. Mazkur qiymatlar uchta ssenariy o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligini ko'rsatadi.

8-jadval

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ARDL ekonometrik modeli asosida 2026-2030-yillarga prognoz qiymatlari,¹⁵ (Y_1 , mlrd. so'm)

Yil	Bazaviy ssenariy	Optimistik ssenariy	Pessimistik ssenariy	Strategik maqsad
2026	123 460	129 052	117 670	133 220
2027	145 330	158 818	131 970	166 820

¹⁴ O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi ma'lumotlari asosida ekonometrik tahlil natijalari

¹⁵ «O'zto'qimachilik sanoat» uyushmasi ma'lumotlari asosida ARDL modeli yordamida hisoblangan

2028	171 069	195 470	147 994	201 360
2029	201 372	240 564	165 944	245 840
2030	237 045	296 060	186 064	298 230

Bazaviy ssenariyga ko'ra, 2030-yilga kelib ishlab chiqarish hajmi 237 mlrd so'mga yetib, bu 2024-yilga nisbatan 2,71 baravar o'sishni anglatadi. Optimistik ssenariyda ushbu ko'rsatkich 296 mlrd. so'mni o'sish 3,38 baravarni tashkil etiladi, pessimistik ssenariyda esa 186 mlrd. so'mni tashki etib, 2,13 baravar o'sishni tashkil etishi prognoz qilinadi. Optimistik ssenariy natijalari strategik maqsad ko'rsatkichi 298 mlrd so'mga amalda yaqinlashadi. Bu esa "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tomonidan belgilangan vazifalarni bajarish faqat yuqori o'sish sur'atlari va qulay iqtisodiy sharoitlar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshishi mumkinligini ko'rsatadi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijalari to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish zanjiri samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlari sifatida bir qator strategik tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi: vertikal va gorizontal integratsiyani chuqurlashtirish, Raqamli transformatsiya va sanoat 4.0 ni jorish etish; Sintetik va aralash tolalar ishlab chiqarishni o'zlashtirish; Yuqori qiymatli eksport mahsulotlarini diversifikatsiya qilish; Paxta-to'qimachilik klasterlari ekotizimini kuchaytirish; Tadqiqot va ishlanmalar hamda innovatsion infratuzilmani rivojlantirish; Inson kapitali va malakali kadrlarni rivojlantirish; ESG, ESPR va halqaro standartlarga moslashish.

XULOSA

Dissertatsiya tadqiqotidan olingan natijalar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida eksport hajmini oshirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va global bozorlarga kirib borishni kengaytirish uchun ishlab chiqarish zanjirini boshqarishning ilmiy-metodologik asoslarini takomillashtirish, qo'shilgan qiymat yaratishda innovatsion menejment usullaridan foydalanish, klasterlash va raqamli texnologiyalarni joriy etish zarur. Shu orqali sohaning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

2. O'zbekistonda to'qimachilik klasterlarini shakllantirish, qo'shilgan qiymat yaratish va klasterlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda zamonaviy menejment tamoyillari hisoblangan Lean, JIT, operatsion boshqaruv kabi usullardan foydalanish orqali Sanoat 4.0 transformatsiyasiga erishiladi. Zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish orqali ishlab chiqarish jarayonlarining integratsiyasi, xarajatlarni kamaytirish, sifatni oshirish hamda raqobatbardoshlikka erishiladi.

3. To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida ishlab chiqarish qiymat zanjirini boshqarishning innovatsion menejment yondashuvlar hisoblangan ishlab chiqarish samaradorligi, sifat, ekologik barqarorlik, raqamli

texnologiyalarni integratsiyalash hamda innovatsion rivojlanishning ilmiy asoslangan yondashuvlardan foydalanish sohada raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishga erishish uchun amaliy asos yaratadi.

4. O'rganilgan xalqaro tajribalar asosida O'zbekiston to'qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, eksport salohiyatini kengaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun Just-in-Time, Lean Manufacturing, ERP tizimlari, kooperatsion ishlab chiqarish tarmoqlari, raqamli boshqaruv, CMT, FOB va OBM modellari kabi ilg'or boshqaruv yondashuvlarini joriy etish dolzarb ilmiy va amaliy yo'nalish sifatida belgilandi. Shu orqali ishlab chiqarishning samaradorligi oshirib, qiymat zanjiri boshqaruvining zamonaviy ilmiy asoslarini yaratish imkoniyati yuzaga keladi.

5. O'zbekiston to'qimachilik sanoati tuzilmasi raqamlashtirish, barqarorlik va klaster tizimini integratsiya qilgan holda rivojlanmoqda. Ishlab chiqarish zanjirining har bir bosqichida qo'shilgan qiymat yaratish, sifatni oshirish, xalqaro standartlarga moslashish orqali sanoatning raqobatbardoshligi va eksport salohiyatini kuchaytirish imkoniyati yaratilmoqda. Shu bois ilg'or boshqaruv modellarini joriy etish, xorijiy tajribalarni o'rganish va ichki zanjirning uzluksizligini ta'minlash dolzarb vazifa sifatida belgilanadi.

6. Regressiyalar ketma-ketligi asosida latent (yashirin) o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni modellashtirish usulidan foydalanish orqali to'qimachilik korxonalarining tashkiliy infratuzilma, inson resurslari, ta'minot tizimi va taqsimot kanallari, texnologik rivojlanish, logistika va ishlab chiqarish tizimlari, marketing faoliyati hamda servis tizimlarini boshqarishning strategik salohiyatini aniqlash va mazkur salohiyatdan samarali foydalanish orqali operatsion xarajatlarni (ishlab chiqarish, logistika, energiya va boshqa xarajatlar bo'yicha) kamaytirish imkoniyati yaratiladi.

7. O'zbekistondan to'qimachilik mahsulotlari import qiluvchi mamlakatlarning strategik ahamiyati va bozordagi xavf darajasiga ko'ra "Kraljic" matritsasiga asoslangan usulda olib borilgan klaster tahlil to'qimachilik korxonalari uchun xavfsiz va yuqori samarador bozorlarni aniqlash imkonini beradi. Mazkur guruhlash natijalari O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari global qiymat zanjirini yaratish va korxonalarning global qiymat zanjiridagi strategik bozorlarini tanlash hamda xorijiy mamlakatlar bozorlardagi risk darajasini pasaytirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilishga asos yaratadi.

8. To'qimachilik klasterlarining ishlab chiqarish zanjirini dinamik tizimli modellashtirish orqali ishlab chiqarish zanjirini to'liq kuzatish imkoni yaratiladi. Dinamik tizim modellari orqali ishlab chiqarish zanjiridagi oqimlar harakatini simulyatsion modellashtirish orqali kiruvchi va chiquvchi resurslarni optimallashtirish hamda zanjirning barcha bosqichlarida muvozanatni ta'minlash natijasida boshqaruv samaradorligini oshirishga erishiladi.

9. To'qimachilik sanoati korxonalarning ishlab chiqarish zanjirining barcha bo'g'inlariga xos bo'lgan "TBL (Triple Bottom Line) = iqtisodiy + ekologik + ijtimoiy natija" uchinchi samara mezonlari menejmentini tashkil etish va tizimni boshqarish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishiladi. Ishlab chiqarish zanjirining barcha bo'g'inlarida "yashil mahsulot", "yashil texnologiya", "yashil logistika", "yashil qadoqlash" va "yashil menejment" innovatsiyalaridan foydalanish orqali uzoq muddatda ekologik samaradorlikni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

**УЧЕНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ DSc.03/2025.27.12.1.23.04 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ.**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

УМАРХОДЖАЕВА АРАФАТХОН МУЗАФФАР КИЗИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ
ЦЕПЬЮ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНО-ТРИКОТАЖНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

08.00.13 - Менеджмент

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.1.DSc/Iqt892.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Юсупов Улугбек Шукуркллаевич**
доктор экономических наук, доцент

Официальные оппоненты: **Хакимов Зиёдулла Ахмадович**
Доктор экономических наук (DcS), дотцент
Саидов Машал Самадович
Доктор экономических наук (DcS), профессор

Ведущая организация: **Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности**

Защита диссертации состоится "____" "____" 2026 года в "____" часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.1.23.04 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100066, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-01-49; факс: (99871) 239-41-23; e-mail: tdu@tsue.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрирована под № ____). Адрес: 100003, г. Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-75; факс: (99871) 239-28-75.

Автореферат диссертации разослан "____" _____ 2026 года.

(реестр протокола рассылки No ____ от "____" _____ 2026 года).л

Г.К. Абдурахманова
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

О.Дж. Джурабаев
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.э.н.,
профессор

Ш.А. Аллаяров
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В странах мира текстильная, швейно-трикотажная промышленность имеет важное значение не только с экономической, но и с экологической и социальной точек зрения. «В 2024 году объем мирового рынка швейно-трикотажных изделий составил 1,84 триллиона долларов США, что составило 1,65 процента мирового ВВП. В глобальном масштабе сеть текстильных поставок в 2023 году составила 433 миллиарда долларов США, ожидается, что этот показатель вырастет до 700 миллиардов долларов США к 2032 году, и прогнозируется ежегодный рост в среднем на 5,5 процента»¹⁶. Такой рост требует новых подходов в таких процессах, как производство, логистика, инвентаризация, работа с поставщиками. Эти аспекты рассматриваются как важная стратегическая задача по экономии ресурсов, обеспечению последовательности производства, снижению загрязнения окружающей среды и быстрому реагированию на рыночные требования - совершенствованию управления цепочками поставок в текстильной и швейно-трикотажной промышленности.

Ученые мира придают большое значение исследованиям по совершенствованию управления производственной цепочкой в текстильной и швейно-трикотажной промышленности. В текстильной и швейно-трикотажной промышленности приоритетными направлениями исследований являются совершенствование систем поставок и снабжения продукции с учетом отраслевых особенностей и принципов развития и эффективное использование в них цифровых технологий, достижение высокой ресурсосбережения на основе применения принципов «умной фабрики» в производстве, организация всех звеньев производственной цепочки стоимости на основе принципов инновационного менеджмента и осуществление ее управления, обеспечение эффективного участия эффективных отечественных предприятий в глобальной цепочке стоимости текстильной и швейно-трикотажной продукции.

В Узбекистане особое внимание уделяется достижению целей устойчивого развития текстильной промышленности и внедрению механизмов создания добавленной стоимости за счет развития данной отрасли. В частности, в Указе Президента Республики Узбекистан от 16 января 2025 года No УП-6 «О дополнительных мерах по развитию цепочки переработки в текстильной и швейно-трикотажной промышленности», принятом в целях повышения инвестиционной конкурентоспособности текстильной и швейно-трикотажной промышленности, расширения экспортного потенциала отрасли, обеспечения более широкого выхода отечественной текстильной продукции на зарубежные рынки, определены задачи по «доведению экспорта продукции до 4,0 миллиарда долларов США в 2025 году, до 5,0 миллиарда долларов США в 2026 году и до 7,0 миллиарда долларов США в 2027 году», «привлечению иностранных инвестиций и

¹⁶ <https://www.researchandmarkets.com/reports/5797455/>

кредитов в размере 5,0 миллиарда долларов США в целях дальнейшего развития глубокой переработки пряжи»¹⁷. Для достижения этой цели требуется совершенствование научно-методологических основ управления производственной цепочкой в текстильной и швейно-трикотажной промышленности, использование инновационных методов менеджмента при создании добавленной стоимости в производственной цепочке, определение путей эффективного управления производственной цепочкой хлопково-текстильных кластеров и глобальной цепочкой создания стоимости, совершенствование использования цифровых технологий в управлении и определение путей достижения целей устойчивого развития. Также был принят Указ No ПФ-17 от 4 февраля 2026 года «О первоочередных мерах по развитию местного производства и промышленной кооперации на основе новой системы». Данным Указом Президента определено, что, начиная с 1 июля 2026 года, на основе анализа республиканского и регионального рынков, будут поэтапно формироваться и публиковаться новые инструменты, а также перечень конкурентоспособной продукции, рекомендуемой к освоению, которая будет способствовать увеличению цепочек добавленной стоимости в национальной экономике.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан: No ПФ-6 от 16 января 2025 года «О дополнительных мерах по развитию цепочки переработки в текстильной и швейно-трикотажной промышленности», No ПФ-71 от 1 мая 2024 года «О мерах по выведению развития текстильной и швейно-трикотажной промышленности на новый этап», No ПФ-2 от 10 января 2023 года «О мерах по поддержке деятельности хлопково-текстильных кластеров, коренному реформированию текстильной и швейно-трикотажной промышленности и дальнейшему повышению экспортного потенциала отрасли», No ПФ-53 от 21 января 2022 года «О мерах по стимулированию глубокой переработки и производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на текстильных и швейно-трикотажных предприятиях, а также их экспорта», No ПФ-14 от 16 ноября 2021 года «О мерах по регулированию деятельности хлопково-текстильных кластеров»; Постановлении Президента No ПП-4186 от 12 февраля 2019 года «О мерах по дальнейшему углублению реформ и расширению экспортного потенциала текстильной и швейно-трикотажной промышленности»; Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан: No 556 от 30 сентября 2022 года «О мерах по дальнейшему расширению финансовой поддержки глубокой переработки и производства готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на текстильных и швейно-трикотажных предприятиях, а также их экспорта», No 733 от 10 декабря 2021 года «О мерах по дальнейшему

¹⁷ Указ Президента Республики Узбекистан от 16 января 2025 года No УП-6 "О дополнительных мерах по развитию цепочки переработки в текстильной и швейно-трикотажной промышленности." <https://lex.uz/docs/7330228>

расширению деятельности хлопково-текстильных кластеров», а также в других нормативно-правовых актах, относящихся к деятельности отрасли.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Научно-теоретические аспекты производства продукции с высокой добавленной стоимостью и повышения экспортного потенциала за счет управления производственной цепочкой предприятий текстильной и швейно-трикотажной промышленности изучены многими зарубежными учеными. В частности, в научных исследованиях Lam J. K. C., Postle R., Pal K., Shen B., Kazancoglu Y., Mutu S. S., McMaster M., Akter M. M., Shah S. M., Lütjen M., Freitag M. и других¹⁸.

В области использования принципов инновационного менеджмента в управлении производственной цепочкой в текстильной и швейно-трикотажной промышленности ученые из стран СНГ В.В.Акимов, М.А.Купцова, Д.Л.Горяев, О.Н.Зотикова, С.Г.Дембицкий, Кузнецов Г.А., Крупнов Ю. и др. А., Гвилия Н. А., Цизя Л., Кошелева Т. Н., Ксенофонтова Т. Ю., Гуляева О. А., Савинов Ю. А., Долженко И. Б., Долженко И. Б. и др.¹⁹

